

JEAN DOMIQUE BAUBYNNG "SKAFANDR VA KAPALAK" ASARI HAQIDA QARASHLAR

Andijon davlat chet tillar instituti

Ibrohimova Durdonaxon Sherzod qizi

Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi

Annotatsiya: ushbu maqolada fransuz adibi va mashhur muharrir Jean Dominique Baubynning insultdan keyingi holati, har qanday holatda ham yashashga bo'lgan ishonch, umid doim bo'lish kerakligi, jismoniy xastalik shukr qilishni bilgan inson uchun hech qanday to'siq bo'lmasligi haqida so'z boradi.

Kalit so'z: insult, chora, umid, logoped, ko'z, kitob, shukronalik, qiyinchilik, shol.

Аннотация: В этой статье рассказывается о постинсультном состоянии французского писателя и известного редактора Жана Доминика Бауби, о вере в жизнь любой ценой, о том, что надежда должна быть всегда, о том, что физическая болезнь не является препятствием для человека, который умеет быть благодарным.

Ключевое слово: инсульт, лекарство, Надежда, логопед, глаз, книга, День благодарения, вызов, паралич, письма.

Annotation: this article talks about the post-stroke State of the French Adib and famous editor Jean Dominique Bauby, the confidence to live in any case, that hope must always be, that physical illness is no obstacle for a person who knows how to give thanks.

Keyword: stroke, measure, Hope, Speech, eye, book, Thanksgiving, Challenge, paralysis, letter.

Hozirgi globallashuv davrida texnologiyalar jamiyatning asosiy qismi bo'lib

qolmoqda. Shu bilan birga hayotimizning, oltinga teng bo'lgan vaqtimizning tayanch bo'lagiga aylanayotganiga ham shak-shubha yo'q. Shunday bir zamonda an'anaviy bilim olish yo'li hisoblangan badiiy asarlar o'qish kishining logikasini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini yuzaga chiqaradi va dunyoqarashini kengaytiradi. Albatta, bu borada gap borar ekan, ba'zan ma'naviy ozuqa bermaydigan, shakl va mazmun mohiyati bir-birga mutanosib bo'lmagan kitoblar ham uchraydi. Lekin shunday asarlar borki, ulardagi mazmun va mohiyat hajm ko'lamidan sezilarli darajada yuqori. Ularni o'qib oldi-qochdi gaplardangina iborat 100ta kitobdan ololmagan ma'lumotlarni o'rganishimiz mumkin.

Jean-Dominique Bauby — fransuz jurnalisti va yozuvchisi, butun dunyoga eng ko'p "The Diving Bell and the Butterfly" nomli kitobi bilan mashhur. U o'zining dunyoga dong'i ketgan asarini 1997-yilda ya'ni "lokd-in sindromi" deb ataldigan og'ir kasallikdan so'ng yozdi. Bu kasallik oqibatida uning butun tanasi falaj bo'lib qoladi va faqatgina bir ko'zini harakatlantirish orqali muloqot qila oladi. Bauby 1952-yilda Fransiyaning shaharlaridan biri bo'lgan "Soissons"da tug'ilgan. U yoshligidan matbuot sohasiga qiziqdi va jurnalist sifatida salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdi. Shuningdek, u umri davomida "Elle" jurnalining bosh muharriri bo'lib ishlagan. Bauby 1995-yilda o'zining to'liq falaj holatiga tushganiga qadar o'zining ijodiy va ijtimoiy hayoti bilan tanilgan edi. U o'sha paytda boshining o'ng tomonida katta miya insultidan so'ng, "lokd-in sindromi"ga duchor bo'ldi. Bu kasallik, asosan, tananing deyarli barcha qismlarini falaj qiladi, lekin aql va ong to'liq saqlanadi. Bu holat esa Baubyga o'zining yangi holatini va hayotini tasvirlash imkonini berdi. Bauby "The Diving Bell and the Butterfly" nomli kitobini shu tarzda, faqat bir ko'zi bilan yozdi. U kitobni ayg'oqchi, noaniq, va ba'zida huzurli uslubda qoraladi. Kitob uning ichki dunyosini, o'zini yangi holatida tushunish va yashash haqidagi his-tuyg'ularini tasvirlab beradi. Bu asar o'zining hissiy va falsafiy chuqurligi bilan juda katta ta'sir qildi. 2007-yilda kitob asosida film ham suratga olindi va bu film ko'plab mukofotlar qozondi. Jean-Dominique Bauby 1997-yilda kitobining chiqishidan bir necha oy o'tib vafot etdi. Uning hikoyasi insonning ruhiy kuchi, sabr va umid haqida ko'plab kishilarga ilhom

berdi.

Kitobda Bauby o'zining yangi holatida yashashni, o'zining fikrlarini va ichki dunyosini tushuntirishni boshlaydi. U o'z tanasini "skafandr" ya'ni harakatlanolmaydigan, yopilgan va qamrab olingan holatdagi insonga o'xshatadi. Negaki, uning butun tanasi harakatlanishdan to'xtagan edi. Lekin miya faoliyati to'xtamagan, u barcga sodir bo'layotgan voqea-hodislarni teran anglab turardi-yu, ularni ifodalab berishga kasallik to'sqinlik qilardi. Ammo uning aqli va ongidagi erkinlikni u "kapalak"ga o'xshatadi, bu esa uning ruhiy erkinligini va xayoliy dunyosini anglatadi. U bir joyda yotgan holda, faqat jismoniy jihatdan emas, balki ruhiy va ichki qiyinchiliklarga qaramay erkin bo'lishni xohlaydi. Bauby o'zining o'tmishdagi hayoti, oilasi, do'stlari va ishini eslab, jismoniy cheklovlariga qaramay ruhiy holatining qanday o'zgarishini o'rganadi. Tashqi tomondan qaraganda azolari harakatdan to'xtagan bir jabirdiyda bo'lib ko'ringaniga qaramay, aslida sog'lom aql bilan shifokorlarning unga qilayotgan muomalasini, rahmli nigohlar taftini, do'st-birodarlarining qilgan aloqasini ko'rib, anglab yotadi. Hayratlanarlisi, shunday qiyin ahvolda bo'lishiga qaramay, shu shol yotgan holatida ham shukr qiladi. Chunki, u bir xonadagi bemorning butunlay harakatlanishdan qolgani sabab qo'lini sichqonlar yeyotganini, bemor esa ingrashdan boshqa hech narsa qila olmayotganini ko'radi. Shu voqeadan so'ng, o'zidagi chap ko'z va ong naqadar hayotga bo'lgan ruhiy kuch, hayotga bo'lgan muhabbat va umid bilan yashash haqidagi juda chuqur fikrlar o'z aksini topadi. Shu voqea sabab o'ziga shaxsiy logoped biriktirishini so'raydi va ichki kechinmalarini insonlarga bildirishni maqsad qiladi va katta bir asarni yaratishga kirishadi. Adibda asar yozish uchun faqat idrok va chap ko'zgina mavjud edi. Hayotga bo'lgan muhabbat shu qadar qudratli bo'larkanki, u ko'z va harflar yordamida butun boshli asar yozishga ham unday oladi. ya'ni "skafandr va kapalak" asari logoped tomonidan maxsus alifbodan harflar ko'rsatilgan va qaysi harf zarur bo'lsa, Bauby ko'zini qisgan va shu tarzda 2 yil davomida asar yozib tugatilgan. Jeandagi shukronalik shu qadar kuchliligidan ruhan kuch berib turgan va umidi hech so'nmagan.

Хулоса: Bauby o'zining jismoniy cheklovlariga qaramay, ichki dunyosidagi erkinlikni saqlab qoladi. Uning ruhiy holati "kapalak"ga o'xshaydi, ya'ni unga o'zgacha bir erkinlik va cheksiz xayoliy dunyo taqdim etiladi. Shunday qilib, asar insonning tanaviy holati qanchalik og'ir bo'lsa ham, ruhiy erkinlikni saqlash mumkinligini ko'rsatadi. Kitob Baubyning har bir kunini sabr bilan o'tkazishini va umidni yo'qotmasligini tasvirlaydi. U o'zining "skafandr" holatida bo'lsa ham, yangi imkoniyatlar yaratishga harakat qiladi, shuningdek, o'zining jismoniy imkoniyatlarini maksimal darajada ishlatishga urinadi. Doim Bauby o'zining kasalligi va holati bilan bog'liq katta qiyinchiliklarni yengib o'tadi. U yozgan har bir so'zni o'zining fojiali holatida muhim bir g'alaba sifatida ko'radi. Bu asar insonning irodasining kuchini, matonat va bardoshlilikini namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Wikipedia sayti
2. "Skafandr va kapalak" Jean Dominique Bauby